

## ONA TILI TA'LIMI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

*Zarina Fayziyeva Otabek qizi  
Navoiy viloyati Navbahor tumani  
10-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Ona tili adabiyot fani*

**Annotatsiya:** Bugungi shiddatli davr har bir insondan bolalik chog'idan boshlab qunt bilan o'qish, ilm va hunar o'rganishni talab etmoqda. Ana shu talab asosida mamlakatimizda o'ziga xos ta'lim tizimi yaratildi: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. Ularda ta'limning boshqa sohalari qatori ona tili ta'limiga ham alohida o'rin ajratilgan. Ona tili o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish dars sifati hamda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Ona tili fani o'qitishda zamонавиy методлар hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ona tili, interfaol usullar, axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, ta'lim, klaster metodi, sinonim.

**Аннотация:** Сегодняшняя насыщенная эпоха требует от каждого человека с детства усердно учиться, осваивать науки и ремесла. На основе этого требования в нашей стране создана уникальная система образования: принятые Закон «Об образовании» и «Национальная программа обучения». Среди других направлений образования особое место отводится обучению родному языку. Родной язык учит учащегося мыслить самостоятельно, полноценно выражать свои мысли устно и письменно. Уровень грамотности учащегося, его роль в общественной жизни строится на основе знаний и умений, приобретенных на его родном языке. Использование интерактивных методов на уроках родного языка имеет большое значение в повышении качества урока. и уровень владения учащимися. В этой статье «Мама» представлена информация о современных методах и информационных технологиях в преподавании языка.

**Ключевые слова:** родной язык, интерактивные методы, информационные технологии, педагогические технологии, образование, кластерный метод, синоним.

**Annotation:** Today's intense era requires every person to diligently study, learn science and craft from childhood. Based on this demand, a unique educational system was created in our country: the Law "On Education" and the "National Training

Program" were adopted. Among other areas of education, a special place is reserved for the education of the mother tongue. The mother tongue teaches the student to think independently, to fully express his thoughts orally and in writing. The student's level of literacy, his role in social life is built on the basis of the knowledge and skills acquired from his mother tongue. The use of interactive methods in the lessons of his mother tongue is of great importance in improving the quality of the lesson and the students' mastery rate. In this article, Mother Information is given about modern methods and information technologies in language teaching.

**Key words:** mother tongue, interactive methods, information technologies, pedagogical technologies, education, cluster method, synonym.

Hozirgi kunda ta'lif tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tadqiq qilishi lozim. Pedagog - ya'ni bola yetaklovchi, bolaga faqat tayyor fikr bermasligi kerak balki uning fikrini kengaytirishi, olamni o'rganishga imkon beruvchi vositalarni topa bilishga o'rgatishi zarur. Biz bir necha zamonlar an'anaviy uslubda ish olib bordik.[1] To'g'ri, bu tizimda ham bolalarga bilm berildi, o'quvchilarning bilm, ko'nikma va malakalari shakllantirildi. O'qituvchi ham o'quvchi ham bir qobiqda harakat qildi, buni qoliplangan tizim desak ham bo'ladi, har ikkalasida ham ma'suliyat yo'qoldi. Hozirgi kunda asosiy pedagogik texnologiyalar imperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, adattiinkulyuziv va boshqa texnologiyalardir. Dars jarayonida bu texnologiyalarni tanlay bilish - bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Darsda interfaol usullardan foydalanishning asosini o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorligidagi faoliyati tashkil etadi. Bu o'z navbatida ta'lifning sifati va samaradorligini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.Hozirgi kunda zamonaviy pedagogikada shunday ta'lif modellari yaratildiki,ular ta'limga texnologik jarayon sifatida yondashib,ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan maqsadlarga erishishni kafolatlamoqda.Pedagogik texnologiya ta'lif usuli,ma'lum ma'noda ta'lif-tarbiya jarayonlari, vositalari,shakl va uslublar majmui bo'lib,ta'lif va tarbiya jarayonini optimal tashkil etishdir.O'quv materiallarini tanlash,qayta ishlash,ularni o'quvchilarning kuchiga,o'zlashtirish xususiyatlariga moslab,shakl va hajmini o'zgartirish ham ta'lif texnologiyasiga daxldor.Ilg'or pedagogik texnologiya – tafakkurning faollashishiga,tanqidiy mushohada qilishga, so'z boyligining rivojlanishiga zamin yaratadi.Mustaqillik yillarida barcha sohalarda bo'lgani kabi ona tili ta'lifida ham bir qator ijobjiy natijalarga erishildi.Jumladan,ona tili fanidan davlat ta'lif standartlarining joriy etilishi o'zbek tilining barcha istifoda imkoniyatlarini

egallashga qaratilgan.Milliy dastur va unga mutlaqo mutanosib bo'lgan yangi avlod darsliklarining yaratilishi,darsni samarali tashkil etishga doir uslubiy qo'llanmalarini chop etilishi,ta'lim jarayoniga interfaol usullarning hamda zamonaviy o'qitish texnologiyalarining kirib kelishi ona tili ta'limi sifatini yanada oshirdi.Ona tili ta'limida o'quvchilarning intellektual maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda mazkur fanga tegishli mavzular o'zlashtirishda pedagogik texnologiyaning turli usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi.Bu xususiyatlardan gap bo'laklar bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni o'rganishda ham o'ziga xos ahamiyatga ega.Gap bo'laklari sintaksisning o'ziga xos muhim va yirik bo'limi sanalishini e'tiborga olib,bu bo'limni akademik litseyda,maktabda o'qitishda kirish va yakunlovchi mashg'ulotlarni tashkil qilish mumkin.Kirish mashg'ulotida gap bo'laklari to'g'risida umumiy ma'lumotlar berilib,o'quvchilarning bu borada umumiy bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi,rivojlantiriladi.Bu jarayonda gap bo'laklarining grammatik xususiyatlari,bosh va ikkinchi darajali bo'laklar,sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar haqida bahs-munozara uyushtirish,bir bosh bo'lakli gaplarni ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengaytirishga yo'naltirilgan topshiriqlar ustida ham ishlash mumkin.O'qituvchi dars mavzusiga tegishli yangi ma'lumotlarni berish jarayonida muammoli vaziyatlar yaratib,ularga har xil savollar bilan murojaat qilishi, ikkinchi darajali bo'laklarning turli ko'rinishlari aks etgan gaplar tuzdirish ham o'quvchilar faolligini oshirib,ularning kommunikativ,nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini takomillashtiradi.Xususan,"To'ldiruvchi" mavzusini o'rganish jarayonida "Klaster"usulidan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

Ushbu tushunchalarning har biriga tegishli misollar keltirish ham o'quvchilar xotirasini mustahkamlaydi,tafakkurini kengaytiradi.To'ldiruvchilarning ifodalanishi" Tafakkur jadvali" usulida ham o'rganish mumkin.Bunda o'quvchilar dastlab muayyan so'z turkumi bilan ifodalangan to'ldiruvchilardan namunalar keltirishadi.Misollar tanlash,gaplar tuzishda ham ularning mantiqiy mazmuniga,didaktik ahamiyatiga alohida e'tibor qaratish lazim.Ayniqsa,badiiy matnlardan olingan misollar o'quvchilarning nazariy tushunchalarini mustahkamlash,lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish bilan bir qatorda ularning badiiy-estetik didini,dunyoqarashini kengaytirishga,nutqiy,kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Masalan:

Ot bilan ifodalangan to'ldiruvchilar:Orazin yopg'och ko'zimdin sochilur har lahza yosh,(ko'zimdin)

Olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchilar:Yurtim,senga she'r bitdim bu kun,(senga)

Otlashgan so'z bilan ifodalangan to'ldiruvchilar: Bu dunyoning nokaslari bor,Ezgulikni ko'rolmaydilar,(Ezgulikni)

Bunday misollarni nasriy va dramatik asarlardan tanlasa ham bo'ladi. Shuningdek, maktabda hol mavzusini o'tishda "Tushunchalar tahlili", "Klaster", "Aqliy hujum", "Tafakkur jadvali", "Bilim bahsi" kabi usullardan foydalanish mumkin. Bu mavzular bo'yicha oxirgi darsni konferensiya darsi tarzida tashkil qilish maqsadga muofiq. O'quvchilar bu usulda gap bo'laklari bo'yicha ma'ruza tayyorlab keladilar.

Hozirda til o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish amalda keng tatbiq qilinmoqda, ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, o'zbek tilini o'qitish jarayonida til sathlari haqida ma'lumot berishda (fonetik-fonologik sath, leksik-semantik sath, grammatik sath) kompyuterdan foydalanish o'quv jarayonining yanada tushunarli bo'lishiga yordam bermoqda. Bundan tashqari, ushbu fan yuzasidan olingan bilimlarni kompyuter dasturidagi turli testlar, topshiriqlar yordamida tekshirish o'qituvchi ish faoliyatini birmuncha yengillashtiradi, sababi, topshiriqni tekshirishga ketgan vaqt, uning qog'oz variantini tayyorlashga ketgan miqdor dars jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'zbek tilidagi tatbiqini yanada oshirish uchun kompyuter dasturlarining o'zbek tilidagi tadbilini ishlab chiqish lozim, bunda kompyuter lingvistikasi fan tarmog'inining tarjima yo'nalishi yordam beradi. Masalan, Microsoft Word dasturining o'zbek tilidagi talqini tarjimonlar hamda dasturchilar hamkorligida ishlab chiqilsa, nur ustida a'lo nur bo'lar edi. Tilning leksik-semantik sathi bugungi kundagi doimiy o'zgarib turuvchi sath hisoblanadi. Ushbu sathdagi barcha so'zlarning izohini berib boruvchi, doimiy yangilanib turuvchi dastur yaratilsa, ayni muddao bo'ladi, sababi, davr ana shunday dasturiy lug'atga muhtoj. Tildagi ma'nodosh, shakldosh, uyadosh, zid ma'noli so'zlar, paronimlar, so'zlarning kelib chiqish tarixiga oid til korpusi yaratilsa, tilshunoslar ishi ancha yengillashadi: har bir so'zning kichik jihatlariga qadar izlab topish, uning mohiyati, lug'aviy ma'nosini aniqlash bir qadar vaqt, mehnat talab qiladi. Ammo bu kompyuter dasturiga aylantirilsa, ishning soddalashishiga yordam beradi. Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilari Asqar Eshmo'minov, Shohista Maxmarayimovalar tomonidan yaratilgan "Til sinonimlarining korpusi" tilshunoslarga anchayin qulaylik yaratib berdi. Aytish joizki, kompyuter texnologiyalari yordamida tildagi qo'shma gaplar, so'z yasalishi, so'z birikmasi kabilarning tuzilish qolipini tahlillash o'zbek tilinining mohiyatini yanada tushunarliroq qilib yoritib berishga xizmat qiladi, aytish joizki, so'z birikmasininining mavjud 18 qolipi yordamida kompyuterda dasturiy ta'minot tuzilsa, ushbu dasturiy ta'minot yordamida gaplardagi so'z birikmalarini (ularning qoliplari asosida) juda oson va tez ajratib olish mumkin bo'ladi. Xususan, unga namuna keltiradigan bo'lsak: .

Ot(qaratqich kelishigi)+ot(egalik qo'shimchasi, III shaxs, birlik) = so'z birikmasi - ushbu qolip kompyuter dasturiy ta'minotiga joylangan bo'lsin deylik. Ushbu qolip gap tarkibidagi so'z birikmalarini ajratishda asos bo'ladi. Masalan: Uyning tomidan yomg'ir yog'ganligi sababli o'tgan tomchilar Nodirning boshiga tushar edi. Bu gapni

kompyuter dasturiy ta'minoti yuqoridagi qolip asosida quyidagi birikmalarga ajratadi:

Uyning tomi - ot+ot

Nodirning boshi - ot+ot

Gap qoliplari ham xuddi shu tarzda olib boriladi, xususan, WPm(Word-ega; predikat-kesim; market-kesimlik qo'shimchalari) sodda gap qolipini oladigan bo'lsak, dasturiy ta'minot ushbu qolip asosidagi sodda gaplarni matn tarkibidan ajratib oladi. So'z yasalishi qoliplari ham yasama so'zlarning yasalish qoliplari sanalib, dasturga ularning kiritilishi AKT ning tildagi mohiyatini ochib beradi: ot+sifat yasovchi qo'shimcha=sifat - ushbu qolip sifatning yasalish qolipi hisoblanib, berilgan matndagi sifatlarni ajratib olishda yordam beradi: Komila aqli, chiroyli, shu bilan birga, tejamkor qiz edi. (aqli(ot+li); chiroyli (ot+li);tejamkor(ot+kor))

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bugungi kunda o'zbek tilini o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda zamonaviy metodlardan foydalanish nafaqat fan yutug'iga aylanadi, balki o'quvchilar fikrash tarzini o'stirib, o'qituvchi ishining ham yengillashishiga sabab bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Lutfullayeva D., Davlatova R., Saparniyazova M. - Hozirgi o'zbek adabiy tili [2020].[1]
- 2.Ona tili. 9-sinf (2014, N.Mahmudov, A.Nurmonov)[2]
- 3.Ona tili. 10-sinf (2017, N.Mahmudov, A.Sobirov)[3]
- 4.www.ziyonet.uz [4]
- 5.A.G'ulomov Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent-2012[5]
- 6.Shayxislamov, N. Z. Umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Science and Education, 1(7), 373-378